


QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2019 yil yanvar-iyul)


2019 yil yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, respublikada tashqi savdo aylanmasi 436,7 mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,1 %ga ko'paydi. Shu jumladan, eksport hajmi 258,7 mln. AQSh dollarga va import hajmi 178,0 mln. AQSh dollariga yetdi. Tashqi savdo saldosi 80,6 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSh dollari)




Joriy yilning yanvar-iyul oylarida, respublika tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 39,0 %ni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 103,3 %ni tashkil qilgan, boshqa davlatlarning ulushi esa 61,0 % bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,2 %ga oshgan. Shuningdek, eksport hajmida MDH davlatlari 49,3 %ni, boshqa davlatlar 50,7 %ni va import hajmida MDH davlatlari 24,2 %ni, boshqa davlatlar 75,8 %ni tashkil qildi.

2019 yil yanvar-iyul oylarida respublika tashqi savdo aylanmasida MDH va boshqa davlatlarning ulushi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)



Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2019 yilning iyul oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar, iyun oyiga nisbatan 0,4 mln. AQSh dollarga ko'proq eksport qilindi va 39,7 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Tovar va xizmatlar importi hajmi esa 22,8 mln. AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lib, bu esa iyun oyiga nisbatan 3,4 mln. AQSh dollariga kamroqdir.

2019 yil yanvar-iyulda tovar va xizmatlarning oylik eksport-import ko'rsatkichlari dinamikasi (mln. AQSh dollari)



2019 yil yanvar-iyul oylarida respublika tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi quyidagicha ko`rinish olgan:

**Respublika tashqi savdo aylanmasida
yuqori ulushga ega davlatlar**

(mln. AQSh dollari)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
				ulushi, %	o'sish sur'ati, %
Xitoy	115,1	66,4	48,7	26,4	111,2
Rossiya	107,3	85,2	22,1	24,6	96,2
Turkiya	51,7	35,7	16,0	11,8	74,0
Qozog'iston	51,3	35,9	15,4	11,7	123,7
Koreya Respublikasi	37,1	11,3	25,8	8,5	2,0m
Latviya	14,5	12,0	2,5	3,3	77,8
Vietnam	7,9	-	7,9	1,8	2,1m
Buyuk Britaniya	7,4	-	7,4	1,7	5,3m
Ukraina	4,4	2,1	2,3	1,0	94,9
Eron	4,3	0,2	4,1	1,0	4,8m
Hindiston	3,1	0,1	3,0	0,7	9,4m
Litva	3,0	-	3,0	0,7	4,6m
Turkmaniston	3,0	0,4	2,6	0,7	2,4m

Respublikamizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019 yil yanvar-iyul oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 39,0 %ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 103,3 %ni tashkil etdi. Boshqa xorijiy davlatlarning respublika tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2018 yilning yanvar-iyul oylarida 60,3 %ni tashkil qilgan bo'lsa, joriy yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 61,0 %ga etdi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining ayrim hamkor davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi

(mln.AQSh dollari)


Davlat nomi	2017 yil yanvar-iyul	2018 yil yanvar-iyul	2019 yil yanvar-iyul
Xitoy	90,0	103,5	115,1
eksport	73,8	78,2	66,4
Import	16,2	25,3	48,7
saldo	57,6	52,9	17,7
Rossiya	73,0	111,5	107,3
eksport	49,8	80,1	85,2
import	23,2	31,4	22,1
saldo	26,6	48,7	63,1
Turkiya	77,2	69,9	51,7
eksport	72,6	64,5	35,7
import	4,6	5,4	16,0
saldo	68,0	59,1	19,7
Qozog'iston	26,7	41,4	51,3
eksport	25,9	34,0	35,9
import	0,8	7,4	15,4
saldo	25,1	26,6	20,5
Koreya Respublikasi	18,0	18,2	37,1
eksport	0,4	2,7	11,3
import	17,6	15,5	25,8
saldo	-17,2	-12,8	-14,5
Latviya	25,1	18,6	14,5
eksport	24,8	16,2	12,0
import	0,3	2,4	2,5
saldo	24,5	13,8	9,5
Vietnam	0,3	3,8	7,9
eksport	0,3	1,0	-

Davlat nomi	2017 yil yanvar-iyul	2018 yil yanvar-iyul	2019 yil yanvar-iyul
import	-	2,8	7,9
saldo	0,3	-1,8	-7,9
Buyuk Britaniya	0,5	1,4	7,4
eksport	-	-	-
import	0,5	1,4	7,4
saldo	-0,5	-1,4	-7,4
Ukraina	7,0	4,6	4,4
eksport	2,4	3,2	2,1
import	4,6	1,5	2,3
saldo	-2,2	1,7	-0,2
Eron	1,9	0,9	4,3
eksport	1,8	0,1	0,2
import	0,1	0,8	4,1
saldo	1,7	-0,7	-3,9
Hindiston	0,3	0,3	3,1
eksport	0,1	0,1	0,1
import	0,2	0,2	3,0
saldo	-0,1	-0,1	-2,9
Litva	0,6	0,6	3,0
eksport	-	-	-
import	0,6	0,6	3,0
saldo	-0,6	-0,6	-3,0
Turkmaniston	0,1	1,3	3,0
eksport	0,1	0,2	0,4
import	-	1,1	2,6
saldo	0,1	-0,9	-2,2


EKSPORT

2019 yil yanvar-iyul oylarida eksport hajmi 258,7 mln. AQSh dollariga teng bo'ldi. Eksport tarkibida tovarlar 99,5 % ulushga ega, bular asosan kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (81,4 %), oziq-ovqat mahsulotlari (8,0 %) guruhlariga hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi (ming AQSh dollari)



Tovar va xizmatlar eksporti ulushi, (%)




Eksport tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Eksport	258,7	88,2	100,0	127,4	104,6	100,0	131,3	100,0	76,5
Paxta tolasi	2,1	-	0,8	-	-	-	2,1	1,6	-
Oziq-ovqat mahsulotlari	20,8	124,9	8,0	7,8	199,8	6,1	13,0	9,9	102,0
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	210,6	80,5	81,4	114,5	99,4	89,9	96,1	73,2	66,0
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	2,3	40,5	0,9	0,8	125,1	0,6	1,5	1,1	29,4
Mashina va asbob-uskunalar	0,1	43,6	-	-	-	0,1	0,04	0,03	3,1m
Xizmatlar	1,3	112,0	0,5	0,9	130,3	0,7	0,4	0,3	83,6
Boshqalar	21,5	2,7m.	8,3	3,3	2,5m	2,6	18,2	13,9	2,7m

Eksport qilinyotgan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-iyul oylari davomida eng yuqori o'sish sur'ati may oyida kuzatilgan.

Tovar va xizmatlar eksportining o'sish sur'atlari (o'tgan oyga nisbatan, %)




Shuningdek, tovar va xizmatlar eksporti o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019 yilning iyul oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar iyun oyiga nisbatan 11,7 %ga ko'paygan.

Xizmatlar eksporti hajmi 1,3 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 0,5 %ini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 12,0 %ga o'sganligi kuzatildi.


Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (42,9 %), safarlar (42,2 %) va transport xizmatlari (13,4 %) hissasiga to'g'ri keladi.

Xizmatlar eksporti tarkibi, (%)



Tovar va xizmatlar eksporti dinamikasi tahliliga ko'ra, 2019 yilning iyul oyi mobaynida eksport qilingan tovarlar hajmi, iyun oyiga nisbatan 0,5 mln. AQSh dollariga ko'p eksport qilindi va 39,5 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar eksporti esa 0,2 mln. AQSh dollarga etgan.



2019 yil yanvar-iyulda tovarlar va xizmatlar eksporti dinamikasi
(oylar kesimida, mln. AQSh dollari)



Respublika eksportida asosiy hamkor davlatlarning ulushi
(yanvar-iyul)

2018 YIL

2019 YIL



Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Xitoy va Qozog'iston hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 72,5 %ini tashkil qiladi. Rossiya Federatsiyasi, Xitoy va Qozog'istonga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlardan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

**Qoraqalpog'iston Respublikasining
asosiy hamkor davlatlarga amalga oshirgan eksport hajmi**

Davlat nomi	Mln. AQSh doll.		Ulushi, %		O'rni	
	2018 yanvar- iyul	2019 yanvar- iyul	2018 yanvar- iyul	2019 yanvar- iyul	2018 yanvar- iyul	2019 yanvar- iyul
Rossiya	80,1	85,2	27,3	32,9	1	1
Xitoy	78,2	66,4	26,7	25,7	2	2
Qozog'iston	34,0	35,9	11,6	13,9	4	3
Turkiya	64,5	35,7	22,0	13,8	3	4
Latviya	16,2	12,0	5,5	4,6	5	5
Koreya Respublikasi	2,7	11,3	0,9	4,4	8	6
Ukraina	3,2	2,1	1,1	0,8	6	7
Qirg'iziston	2,9	2,0	1,0	0,8	7	8
Tojikiston	1,2	1,5	0,4	0,6	11	9
Estoniya	2,6	1,1	0,9	0,4	9	10
Iroq	1,6	1,0	0,6	0,4	10	11

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2019 yilning yanvar-iyul oylarida jami 20 378,4 tonna meva-sabzavot mahsulotlari 7 959,0 ming AQSh dollariga eksport qilindi (o'sish sur'ati – 189,6%). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2019 yilning yanvar-iyul oylarida 14 490,7 tonna sabzavotlar 4 602,2 ming AQSh dollariga eksport qilingan.

Shuningdek, 4 030,0 tonna meva va rezavorlar 2 609,4 ming AQSh dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3 307,1 tonnaga ko'paygan.

Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi





Shuni aytib o'tish joizki, mamlakatimizda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. Jumladan, 2019 yilning yanvar-iyul oylarida uzum va qovun-tarvuz eksport hajmi 487,2 ming AQSh dollariga yetdi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,5 barobarga o'sgan).

Respublikamizda yetishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining asosiy bozorlari eksport geografiyasi

Davlat nomi	2018 yil yanvar-iyul			2019 yil yanvar-iyul		
	tonna	ming AQSh doll.	ulushi, %	tonna	ming AQSh doll.	ulushi, %
Qozog'iston	19436,2	3388,2	80,7	15196,4	5855,3	73,6
Rossiya	573,9	363,7	8,7	3958,6	1417,7	17,8
Bolgariya	-	-	-	66,7	310,6	3,9
Qirg'iziston	-	-	-	69,1	109,5	1,4
Ukraina	-	-	-	21,5	101,1	1,3
Turkiya	72,0	46,1	1,1	502,6	66,0	0,8
Ruminiya	-	-	-	252,0	36,3	0,5
Turkmaniston	10,0	7,3	0,2	275,9	32,5	0,4
Xitoy	-	-	-	25,5	24,7	0,3


2019 yil yanvar-iyulida meva va sabzavot mahsulotlarining tarkibi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)




IMPORT

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida import hajmi 178,0 mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 45,8 %ga o'sdi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar (56,5 %), kimyo mahsulotlari va buyumlari (9,6 %), kimyo mahsulotlari va buyumlari (9,6 %), oziq-ovqat mahsulotlari (8,5 %) va xizmatlar (4,3 %) guruhlari hisobiga to'g'ri keldi.

Tovar va xizmatlar importi tarkibi (ming AQSh dollari)



Tovar va xizmatlar importi ulushi, (%)




Import tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Import	178,0	145,8	100,0	43,1	99,9	100,0	134,9	170,8	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	15,1	2,5m	8,5	14,8	2,5m	34,4	0,3	3,3m	0,2
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	17,2	108,3	9,6	1,8	62,3	4,2	15,4	118,6	11,4
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	4,8	151,2	2,7	1,2	106,6	2,9	3,6	176,4	2,7
Qora va rangli metallar	1,7	53,8	1,0	0,5	22,9	1,1	1,2	107,8	0,9
Mashina va asbob-uskunalar	100,6	186,7	56,5	9,9	2,4m	22,9	90,7	182,0	67,2
Xizmatlar	7,6	98,8	4,3	1,0	42,6	2,2	6,6	122,3	4,9
Boshqalar	31,0	96,2	17,4	13,9	56,3	32,3	17,1	2,3m	12,7

Import qilingan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-iyul oylari davomida eng yuqori o'sish sur'atlari aprel oyida kuzatilgan.

Tovarlar va xizmatlar importining o'sish sur'atlari dinamikasi (o'tgan oyga nisbatan, %)




Shuningdek, tovar va xizmatlar importi o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019 yilning iyul oyida import qilingan tovar va xizmatlar iyun oyiga nisbatan 13,9 %ga kamaygan.

Qoraqalpog'iston Respublikasiga asosiy hamkor davlatlardan amalga oshirilgan import hajmi

Davlat nomi	Mln. AQSh doll.		Ulushi, %		O'rni	
	2018 y. yanvar-iyul	2019 y. yanvar-iyul	2018 y. yanvar-iyul	2019 y. yanvar-iyul	2018 y. yanvar-iyul	2019 y. yanvar-iyul
Xitoy	25,3	48,7	20,7	27,4	2	1
Koreya Respublikasi	15,5	25,8	12,7	14,5	3	2
Rossiya	31,4	22,0	25,7	12,4	1	3
Turkiya	5,5	16,0	4,5	9,0	5	4
Qozog'iston	7,4	15,4	6,1	8,6	4	5
Vietnam	2,9	7,9	2,3	4,5	6	6

Buyuk Britaniya	1,4	7,4	1,1	4,2	8	7
Eron	0,8	4,1	0,6	2,3	10	8
Hindiston	0,2	3,0	0,2	1,7	12	9
Litva	0,6	3,0	0,5	1,7	11	10
Turkmaniston	1,1	2,6	0,9	1,5	9	11
Latviya	2,4	2,5	2,0	1,4	7	12


Xizmatlar importi tarkibi, (%)



Xizmatlar importi hajmi 7,6 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 4,3 %ini tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 98,8 %ni tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi boshqa ish yuzasidagi xizmatlar (82,6 %) hamda moliyaviy xizmatlar (8,3 %)dan iborat bo'ldi.


2019 yil yanvar-iyulda tovarlar va xizmatlar importi dinamikasi

(oylar kesimida, mln. AQSh dollari)



Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2019 yilning o'tgan davri mobaynida respublikaga import qilinayotgan tovar va xizmatlar iyul oyida, iyun oyiga nisbatan 3,4 mln. AQSh dollarga kam import qilingan bo'lib, shundan tovarlar 3,8 mln. AQSh dollarga kam va xizmatlar 0,4 mln. AQSh dollarga ko'p import qilingan.

Respublika importida asosiy hamkor davlatlarning ulushi (yanvar-iyul)



2019 yilning yanvar-iyul oylarida respublikaga 45 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 6 ta eng yirik bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Qozog'iston va Vietnam hamkor davlatlaridan jami import hajmi 135,9 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 76,3 %ini tashkil qiladi.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashina va asbob-uskunalar, kimyo mahsulotlari va buyumlari hamda oziq-ovqat mahsulotlari asosan qaysi davlatlardan respublikamizga olib kirilayotganligini quyidagi sxemalardan ko'rish mumkin.

Mashina va usbob-uskunalar import qilingan asosiy hamkor davlatlar

DAVLAT NOMI	XITOIY	TURKIYA	VIETNAM	BUYUK BRITANIYA	ROSSIYA
mln. AQSH doll.	45,8	10,0	7,8	6,7	5,9
O'tgan yilga nisbatan, %	2,1m	3,6m	2,7m	11,7m	2,4m
Ulushi, %	45,5	9,9	7,8	6,6	5,9

Kimyo mahsulotlari va buyumlari import qilingan asosiy hamkor davlatlar

DAVLAT NOMI	KOREYA RESPUBLIKASI	POLSHA	ROSSIYA	QATAR	XITOIY
mln. AQSH doll.	7,8	1,2	1,2	1,0	0,9
O'tgan yilga nisbatan, %	103,9	7,5m	80,8	-	169,4
Ulushi, %	45,3	7,3	6,9	5,9	5,1

Oziq-ovqat mahsulotlari import qilingan asosiy hamkor davlatlar

DAVLAT NOMI	QOZOG'ISTON	ROSSIYA	TURKMANISTON	UKRAINA
mln. AQSH doll.	12,2	1,9	0,4	0,3
O'tgan yilga nisbatan, %	3,0m	8,0m	-	25,8
Ulushi, %	80,5	12,7	2,9	1,8

Yurtimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida mamlakatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.:71-230-82-06**